

SUD HOKIMIYATI MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Mamarasulov Xumoyun Sherali o'g'li

Jizzax yuridik texnikumi o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21462555>

Annotatsiya. Ushbu maqola sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlanishi, sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi tamoyili tahlil qilingan. Shuningdek, Sudyalar oliy kengashining konstitutsiyaviy maqomi, sudyalarni tanlash va tayinlash tartibi, sudyalar daxlsizligi, ularning vakolat muddatlari, intizomiy javobgarligi hamda ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq kafolatlar yoritib berilgan.

Maqolada xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, sud hokimiyati mustaqilligini yanada mustahkamlash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sud hokimiyati, sudyalar mustaqilligi, hokimiyatlar bo'linishi, Sudyalar oliy kengashi, odil sudlov, sudyalar daxlsizligi, konstitutsiyaviy kafolat, sud-huquq islohoti, qonun ustuvorligi, sud himoyasi, intizomiy javobgarlik.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS FOR ENSURING THE INDEPENDENCE OF THE JUDICIARY

Annotation. This article is devoted to the study of the constitutional and legal foundations for ensuring the independence of the judiciary. The study analyzes the principle of separation of powers, the consolidation of the independence of the judiciary in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the principle of the independence of judges and their subordination only to the law. It also examines the constitutional status of the Supreme Judicial Council, the procedure for the selection and appointment of judges, judicial immunity, terms of office, disciplinary liability, and social protection guarantees. The article conducts a comparative analysis with international standards and develops proposals for further strengthening the independence of the judiciary.

Keywords: judiciary, independence of judges, separation of powers, Supreme Judicial Council, justice, judicial immunity, constitutional guarantee, judicial reform, rule of law, judicial protection, disciplinary liability.

KIRISH

Sud hokimiyatining mustaqilligi huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Faqat mustaqil sudgina inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qila oladi, qonun ustuvorligini ta'minlaydi va jamiyatda adolat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Aksincha, sudning tashqi ta'sirga uchrashi odil sudlov mohiyatini yo'qotib, fuqarolarning davlatga va huquqiy tizimga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Shu bois sud mustaqilligini ta'minlash barcha demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy darajada hal qilinadigan masaladir.

O'zbekistonda sud-huquq islohotlari so'nggi yillarda izchil amalga oshirilmoqda. 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon ushbu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi.

Unga muvofiq Prezident huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi negizida Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi va 2017-yil 6-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Islohotlarning navbatdagi bosqichi 2021-yil 28-iyulda yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bo'ldi. 101 moddadan iborat ushbu Qonun 2021-yil 29-iyulda rasmiy e'lon qilingan kundan kuchga kirdi. Unda sudyalar maqomi, ularning mustaqilligi kafolatlari va sudyalik lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqildi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy kafolatlarini yanada mustahkamladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini kompleks tahlil qilish, mavjud kafolatlar tizimini baholash va uni yanada mustahkamlash yo'llarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sud hokimiyati mustaqilligi masalasi konstitutsiyaviy huquq fanida keng o'rganilgan.

O'zbek olimlarining ishlarida, jumladan O.T. Xusanovning "Konstitutsiyaviy huquq" darsligida sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari, sudyalar mustaqilligining kafolatlari va sud tizimining tuzilishi yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarining tahlili, Sudyalar oliy kengashining maqomi va sud islohotlarining amaliy natijalari muhokama qilinmoqda.

Ilmiy manbalarda sud mustaqilligining ikki jihati farqlanadi: institutsional (tashkiliy) mustaqillik va funksional (shaxsiy) mustaqillik. Institutsional mustaqillik sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmoqlaridan ajratilishini, o'z byudjeti va boshqaruv organlariga ega bo'lishini anglatadi. Funksional mustaqillik esa har bir sudyaning aniq ish bo'yicha qaror qabul qilishda hech kimga bo'ysunmasligini, faqat qonun va ichki e'tiqodiga tayanishini bildiradi.

Ushbu ikki jihat bir-birini to'ldiradi va faqat birgalikda haqiqiy mustaqillikni ta'minlaydi.

Xalqaro standartlar nuqtai nazaridan sud mustaqilligi BMTning 1985-yilda qabul qilingan Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplarida belgilangan. Ushbu hujjatda sud mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanishi va konstitutsiyada mustahkamlanishi, sudyalar tanlovi ob'ektiv mezonlar asosida o'tkazilishi, ularning vakolat muddati kafolatlanishi va intizomiy jarayonlar adolatli tartibda amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlangan. Yevropa Kengashi tavsiyalarida ham sudyalar hamjamiyati organlarining sudyalarni tanlashdagi hal qiluvchi roli e'tirof etiladi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodi – Konstitutsiya, "Sudlar to'g'risida"gi va "Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi qonunlar normalarini o'rganish uchun; qiyosiy-huquqiy metod – milliy normalarni xalqaro standartlar bilan solishtirish uchun; tarixiy-huquqiy metod – sud islohotlari bosqichlarini kuzatish uchun; tizimli tahlil metodi va umumlashtirish metodi – xulosa hamda takliflar ishlab chiqish uchun qo'llanildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy asoslari aniqlandi va ular bir necha guruhga tasniflandi.

Birinchi guruh – umumkonstitutsiyaviy asoslar. Konstitutsiyada davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi belgilangan. Ushbu norma sud hokimiyatini mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatida e'tirof etadi va uning boshqa hokimiyat tarmoqlariga bo'ysunmasligini kafolatlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda hokimiyat vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki hokimiyatning muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof deb e'tirof etilgan.

Ikkinchi guruh – funksional kafolatlar. Konstitutsiyaga muvofiq, sud hokimiyatiga odil sudlovni amalga oshirish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifasi yuklatilgan. Sudyalar mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Bundan tashqari, favqulodda sudlarni tuzishga yo'l qo'yilmasligi ham muhim kafolat hisoblanadi.

Uchinchi guruh – institutsional kafolatlar. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 135-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi bo'lib, u sudyalar korpusining shakllantirilishini hamda sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlaydi. Kengashga konstitutsiyaviy maqom berilgani xalqaro standartlarga muvofiq bo'lib, unga yuklatilgan vazifalarni mustaqil va samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir. Kengash tarkibining kamida yarmi sudyalar hisobidan shakllantirilishi nazarda tutilgan.

To'rtinchi guruh – sudyalar korpusini shakllantirish bilan bog'liq kafolatlar. Konstitutsiyaning 134-moddasiga muvofiq, Oliy sudning raisi va uning o'rinbosarlari Prezidentning taqdimiga binoan besh yillik muddatga saylanadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari esa Prezidentning taqdimiga binoan Senat tomonidan Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanadi. Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonunda belgilanadi.

Beshinchi guruh – sudyaning shaxsiy maqomi bilan bog'liq kafolatlar. "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, sudya birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o'n yillik muddatga va lavozimda bo'lishning muddatsiz davriga saylanadi yoki tayinlanadi. Bunday bosqichma-bosqich tartib sudyaning kelajakdagi taqdiri haqida tashvishlanmasdan, faqat qonunga tayanib qaror qabul qilishiga imkon beradi. Oliy sud sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi 70 yoshni, boshqa sudlar sudyalari uchun 65 yoshni tashkil etadi.

Oltinchi guruh – malaka talablari va intizomiy javobgarlik. Yangi Qonunda sudyalik lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar kuchaytirildi: tuman yoki shahar sudining sudyasi bo'lish uchun yuridik kasb bo'yicha eng kam ish staji 7 yil, viloyat sudyaligiga 10 yil, Oliy sud sudyaligiga 15 yil etib belgilandi. Ilk bor sudyalik lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida majburiy tartibda o'qishi shart. Intizomiy javobgarlik asoslari aniq belgilanib, ular odil sudlovni amalga oshirishda qonuniyligni buzish, sud ishini tashkil etishdagi kamchiliklar, sudyalik sha'niga dog' tushiradigan nojo'ya xatti-harakat va Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzish hollarini qamrab oladi.

Yettinchi guruh – ijtimoiy va moddiy kafolatlar. Qonunda uy-joyga muhtoj sudya xizmat turar joyi bilan ta'minlanishi, doimiy turar joy berilgunga qadar ijara xarajatlari kompensatsiya qilinishi nazarda tutilgan. Vakolatlari muddati tugagan sudyalarning o'rtacha oylik ish haqi qayta saylash masalasi hal qilinayotgan davrda saqlanib qoladi. Bunday moddiy kafolatlar sudyaning moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lishiga va tashqi ta'sirlarga berilmasligiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar tahlili sud hokimiyati mustaqilligining mustahkam konstitutsiyaviy asoslari yaratilganini ko'rsatadi.

Biroq huquqiy normalarning mavjudligi o'z-o'zidan mustaqillikni kafolatlamaydi – ular amaliyotda izchil ro'yobga chiqarilishi lozim. Ilmiy tadqiqotlarda sud amaliyotida bir xillikning buzilishi, sudyalarga nisbatan tashqi bosim holatlari va fuqarolarning adolatga bo'lgan ishonchi bilan bog'liq muammolar qayd etilmoqda. Bu esa mustaqillikni ta'minlashning amaliy mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Sudyalar oliy kengashining faoliyati alohida e'tiborga loyiq. Kengashning sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashdagi roli uning o'zi mustaqil tarzda faoliyat yuritishiga bevosita bog'liq.

Muhim yangilik sifatida Kengash raisining tayinlanish tartibi o'zgargani qayd etiladi: u endi Senat a'zolari orasidan Prezident farmoyishi bilan tayinlanmasdan, boshqa mustaqil konstitutsiyaviy organlar rahbarlari kabi Prezidentning taqdimiga binoan Senat tomonidan tayinlanadi. Bu tartib Kengashning mustaqilligini oshiruvchi omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, Kengash a'zolarining shaxsiy mustaqilligini ta'minlash bo'yicha zarur huquqiy kafolatlar qonunda yanada aniqroq belgilanishi maqsadga muvofiq. Xalqaro tajribada sudyalarning kengashlari a'zolarining vakolat muddati davomida ularga nisbatan ta'sir o'tkazishning oldini oluvchi mexanizmlar nazarda tutiladi. Bundan tashqari, Kengash qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibining shaffofligi ham muhim ahamiyatga ega.

Sud mustaqilligining moliyaviy jihati ham muhim omil hisoblanadi. Sudlarning byudjeti to'liq ijro hokimiyatiga bog'liq bo'lsa, bu bilvosita ta'sir vositasiga aylanishi mumkin. Xalqaro standartlarda sud tizimini moliyalashtirish uchun byudjetning alohida moddasi ajratilishi va sud hokimiyatining o'z byudjeti bo'yicha takliflar berish huquqi tavsiya etiladi. Shu bois sud tizimini moliyalashtirishning barqaror va mustaqil mexanizmini yaratish, sudlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash mustaqillikni ta'minlashning zaruriy shartidir.

Bundan tashqari, sud faoliyatining oshkoraligi va jamoatchilik nazorati mustaqillikni mustahkamlovchi omil sifatida qaralishi lozim. Yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq barcha sudlarda ishlar ochiq ko'riladi, ishlarni yopiq sud majlisida ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi. Sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslar va ommaviy axborot vositalari vakillari qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuv olib borishi mumkin. Sud qarorlarining ochiq e'lon qilinishi va sud statistikasining shaffofligi jamiyatning sudga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda sudyalarning mas'uliyatini kuchaytiradi.

Sudyalarning kasbiy tayyorgarligi ham mustaqillikning bilvosita kafolati hisoblanadi.

Yuqori malakali, qonunni chuqur biladigan sudya tashqi ta'sirlarga qarshi tura oladi va o'z qarorini huquqiy jihatdan asoslay oladi. Sudyalarning oliy maktabida majburiy tayyorgarlikdan o'tish talabi hamda ish tajriga qo'yilgan yuqori talablar aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Sudyalarning malakasini muntazam oshirib borish tizimini rivojlantirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

XULOSA

Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va sud-huquq sohasidagi qonunchilik ushbu sohada kompleks kafolatlar tizimini yaratdi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishi, sud faoliyatiga aralashish taqiqligi, favqulodda sudlarni tuzishga yo'l qo'yilmasligi, Sudyalarning oliy kengashining konstitutsiyaviy maqomi, sudyalarning vakolat muddatlarining barqarorligi hamda ularning ijtimoiy himoyasi mustaqillikning asosiy konstitutsiyaviy asoslarini tashkil etadi.

Sud hokimiyati mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin. Birinchidan, Sudyalar oliy kengashi a'zolarining shaxsiy mustaqilligini ta'minlovchi qo'shimcha huquqiy kafolatlarni qonunchilikda mustahkamlash zarur. Ikkinchidan, sud tizimini moliyalashtirishning mustaqil mexanizmini takomillashtirish, byudjetni shakllantirishda sud hokimiyatining ishtirokini kengaytirish lozim.

Uchinchidan, sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya etishda shaffoflik va ob'ektiv mezonlarni yanada kuchaytirish, tanlov jarayonining natijalarini asoslash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, sudyalarga nisbatan har qanday tashqi ta'sir holatlarini aniqlash, qayd etish va bartaraf etish mexanizmlarini samarali ishlatish zarur.

Beshinchidan, sud amaliyotining bir xilligini ta'minlash maqsadida Oliy sud Plenumi tushuntirishlarini muntazam ravishda umumlashtirish va sudyalar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash odil sudlov sifatini oshiradi. Oltinchidan, sudyalarning kasbiy malakasini oshirish tizimini rivojlantirish va sud faoliyatining oshkoraligini yanada kengaytirish jamiyatning sudga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ushbu chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga va uning Konstitutsiyada e'lon qilingan inson huquqlari himoyasining samarali kafolatiga aylanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023-yil 30-aprel referendumida qabul qilingan. – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahrir, 2021-yil 28-iyul). – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-104724>
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida”gi Qonuni (O'RQ-427-son, 2017-yil 6-aprel). – Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni (PF-4966, 2017-yil 21-fevral). – Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni (PF-6034, 2020-yil 24-iyul). – Lex.uz.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
7. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022.
8. Azizov X.T. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini ro'yobga chiqarish – muhim vazifa // Yurisprudensiya. – Toshkent: TDYU, 2023. – Maxsus son. – B. 15–20.